

Date: 15th January-2026

O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARIDA UCHRAYDIGAN "OLMA" MEVASI NING
RAMZIYLIGI.

Mutalibova Saodat O'lmas qizi

Bux.DPI magistranti

saodatmutalibova9@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek xalq qo'shiqlarida uchraydigan olma mevasi obrazining ramziy ma'nolari tahlil qilinadi. Xalq og'zaki ijodida olma tabiat, yoshlik, go'zallik, poklik va muhabbat timsoli sifatida namoyon bo'lishi ko'rsatib beriladi. Qo'shiqlardagi olma bilan bog'liq poetik birliklar orqali lirik qahramonning ruhiy kechinmalari, sevgi va sog'inch tuyg'ulari, shuningdek, milliy estetik qarashlar ifodalanishi ochib beriladi. Tadqiqot jarayonida folklorshunoslik va badiiy-estetik tahlil metodlaridan foydalanilib, olma obrazining xalqona tafakkurdagi o'rni va uning badiiy funksiyasi yoritiladi. Maqola o'zbek xalq lirikasidagi meva obrazlarining ramziy tizimini anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: olma, folklor, ramz, meva, qo'shiq, obraz, estetika.

O'zbek xalq og'zaki ijodi xalqning asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatlari va milliy tafakkurini o'zida mujassam etgan bebaho madaniy meros hisoblanadi. Folklor namunalarida til birliklari nafaqat nominativ vazifani bajaradi, balki xalqning hayotiy tajribasi, e'tiqodlari hamda estetik qarashlarini ifodalovchi muhim semantik yukni ham o'z zimmasiga oladi. Shu jihatdan qaralganda, folklorda qo'llaniladigan leksik birliklarning, xususan, meva nomlarining semantik tahlili xalq tafakkurini lingvistik va madaniy jihatdan anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Meva nomlari o'zbek folklorida oddiy oziq-ovqat mahsuloti sifatida emas, balki ramziy va obrazli ma'nolarni ifodalovchi madaniy belgilar sifatida namoyon bo'ladi. Anor baraka va ko'payish, olma go'zallik va muhabbat, uzum rizq va farovonlik, anjir esa muqaddaslik va shifo timsoli sifatida talqin qilinadi. Ushbu mevalar xalq maqollari, topishmoqlari, xalq qo'shiqlari hamda marosim matnlarida turli semantik qatlamlarda namoyon bo'lib, badiiy-estetik vazifa bajaradi.

Olma mevasi folklor adabiyotida eng ko'p qo'llaniladigan meva hisoblanadi. Olma folklor, shu jumladan, badiiy adabiyotda yoshlik, go'zallik va muhabbat timsoli sifatida talqin qilinadi. Xalq og'zaki ijodining bir qancha janrlarida olmaning turli ramzlarni gavdalandirganini ko'rishimiz mumkin. Xalq qo'shiqlarida ham yuqoridagi fikrlarning isbotini ko'rishimiz mumkin:

Olmaginam

Olmaginam osh endi,
Ertarog sen pish endi.,
Kun o'tkazma, osilma,
Kel ertarog tush endi.
Olmaginam oziqsan,



Date: 15th January-2026



O'karib eding qoziqdan.
Ko'kartib edim suv berib,
Na pishmaysan giziqsan.
Olmaginam ola ko'z,
Yaltiraydi ikki yuz.
Bozor borsam, talashsin,
Kelib qolsin o'g'il-qiz.
Olmaginam o'rayin,
Savatlarga terayin.
Kimlar pulni ko'p bersa,
Seni shunga berayin.⁴⁷

“Olmaginam” she’rida olma obrazi xalqona tafakkur mahsuli sifatida jonlantirilgan badiiy timsol darajasiga ko’tariladi. She’r davomida olma oddiy meva sifatida emas, balki inson hayoti va ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy bog‘langan ko‘p qatlamli semantik birlik sifatida talqin qilinadi. Shoir olma bilan bevosita suhbatlashgandek murojaat qilib, unga “osh”, “pish”, “tush” kabi insoniy xususiyatlarni yuklaydi. Bu holat folklorga xos personifikatsiya usuli orqali vaqtni boy bermaslik, yetilish va kamolotga intilish g‘oyalarini ifodalaydi. Olmaning pishishi hayotdagi mehnat va sabr natijasi sifatida anglanadi. Olmaning savatga terilib, ko‘p pul bergan xaridorga sotilishi tasviri bilan folkloriy obraz real hayot bilan tutashtiriladi. Bu yerda olma mehnat mahsuli, bozor ne’mati va moddiy qiymatga ega birlik sifatida yakuniy semantik ma’no kasb etadi. Umuman olganda, “Olmaginam” she’rida olma obrazi xalq tafakkurida shakllangan rizq, mehnat, yetilish, go‘zallik va ijtimoiy qadriyatlar tizimini o‘zida mujassam etgan ko‘p ma’noli badiiy timsol sifatida namoyon bo‘ladi.

Kelinsalomlarda ham yuqoridagi hodisalarni ham ko‘rishimiz mumkin:

Qizil olmaning po‘sti,
Kuyov yigitning do‘sti,
Qolmasin kam-u ko‘sti,
Hammalariga salom.

Nega aynan qizil olma? Chunki, qizil olma sevgi, muhabbat ramzi hisoblanadi. Shunin g uchun ham kuyovga salom qilayotganda aynan qizil olma tilga olingan. Yangi oila qurayotgan kelin-kuyov bir-biriga mehr-muhabbatli bo‘lsin degan maqsadda qizil olma tilga olingan.

Olmamidi, anormidi,
Yor, sening boshingdagi?
Olmamidi, anormidi,
Yor, sening ko‘ksingdagi?

Ushbu lirik qo‘shiqda ham mevalar, xususan, olma orqali ohangdorlik, estetik go‘zallik ko‘rsatib berishga harakat qilingan.

Olma guli noparmon,

⁴⁷ T. Mirzayev va b. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi. T-2008. 17-bet.

Date: 15th January-2026

Yorni izlab toparman
Yorni izlab topganda
O'ng betidan o'parman.

Quyidagi to'rtlik xalq og'zaki ijodiga xos lirik qo'shiqdan olingan parcha bo'lib, unda sevgi, sog'inch va orzu ramziy obrazlar orqali ifodalanadi. Avvalo, "Olma guli noparmon" misrasi tabiat manzarasi orqali ruhiy holatni ochadi. Olma guli — xalq she'riyatida poklik, yoshlik, bahor va go'zallik timsoli. "Noparmon" so'zi esa bu go'zallikning nozik, beozor va o'ziga rom etuvchi holatini kuchaytiradi. Demak, bu obraz oshiq qalbidagi sof tuyg'ularning ramziy ifodasidir. "Yorni izlab toparman" misrasida lirik qahramonning qat'iyati va umidi namoyon bo'ladi. "Izlab" fe'li jarayonni, mehnat va sabrni bildirsa, "toparman" kelasi zamon shaklida berilib, ishonch va ijobiy yakunga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi. Bu oshiq uchun yor tasodif emas, balki taqdir orqali topiladigan muqaddas ne'mat ekanini anglatadi. "Yorni izlab topganda" degan takroriy tuzilma his-tuyg'uning kuchini oshiradi. Takror xalq qo'shiqlariga xos bo'lib, ohangdorlik va ichki ritmni mustahkamlaydi. Bu yerda oshiqning butun fikri faqat yor atrofida aylanishi ko'rsatiladi.

So'nggi misra — "O'ng betidan o'parman" — sevgining eng sodda, ammo eng samimiy ifodasidir. O'ng betdan o'pish sharqona madaniyatda hurmat, ehtirom va halollik ramzi bo'lib, bu muhabbat jismoniy ehtirosdan ko'ra ruhiy yaqinlikka asoslanganini bildiradi.

Umuman olganda, to'rtlikda ramziy obrazlar (olma guli), takror, kelasi zamon shakli va xalqona ifoda vositasida sof muhabbat, umid va sadoqat g'oyasi estetik jihatdan ixcham, ammo ta'sirli tarzda ifodalangan. Bu parcha xalq lirikasining samimiyligi va tabiiy go'zalligini yaqqol namoyon etadi.

XULOSA

O'zbek xalq qo'shiqlarida olma mevasi obrazi xalqona estetik tafakkurning muhim unsurlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, olma ramzi qo'shiqlarda asosan yoshlik, go'zallik, poklik, muhabbat va orzu-intilish g'oyalari bilan uzviy bog'liq holda ifodalanadi. Ushbu obraz tabiat va inson ruhiyati o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlab, lirik qahramon kechinmalarini obrazli va ta'sirchan tarzda ochib berishga xizmat qiladi. Xalq qo'shiqlarida olmaning takroriy qo'llanilishi uning milliy madaniyat va an'analardagi muqim o'rnini tasdiqlaydi. Natijada, olma mevasi obrazi o'zbek xalq lirikasida nafaqat badiiy bezak, balki chuqur ramziy ma'noga ega poetik vosita sifatida shakllanganligi aniqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.T. Mirzayev va b. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. T-2008.
2. Mirzayev T. O'zbek xalq og'zaki ijodi. — Toshkent: O'qituvchi, 1990.
- 3.To'ra Mirzayev. O'zbek xalq qo'shiqlari. — Toshkent: Fan, 2002.
- 4.O'zbek xalq ijodi. Ko'p jildlik to'plam. — Toshkent: Fan nashriyoti.
5. api.unilibrary.uz

